

O'ZBEK ADABIYOTIDA MUSTAQILLIK DAVRI HIKOYALARI TAHLILI
(ULUG'BEK HAMDAMNING "SO'Z" HIKOYASI MISOLIDA)

Yusupova Hanifa

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-bosqich 613/21-guruh
talabasi

Annotatsiya: Mustaqillik davrida yaratilgan hikoyalarni Ulug'bek Hamdamning "So'z" hikoyasi misolida tahlil qilish. Ushbu hikoya orqali ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan, er-xotin munosabatlarida yo'l qo'yiladigan xatolar tahlil qilinadi.

Annotation: Analysis of the stories created during the period of independence using the example of the story "Soz" by Ulugbek Hamdam. Through this story, mistakes made in social relations, including marital relations, are analyzed.

Kalit so'zlar: Badiiy adabiyot, tahlil, munosabat, Zaxariqdaryo, taassurot, ijtimoiy monosabat, mustaqillik, hikoya.

Badiiy adabiyot san'atning boshqa turlari orasida alohida mavqega egadir. Chunki u inson ma'naviyatini shakllantirishda asosiy o'rin tutadigan vositadir. G'oyat ko'p o'lchovli murakkab butunlik bo'lmish badiiy adabiyot o'quvchi tomonidan o'qilib, his etilib, anglanib olingandagina ta'sirchan estetik ma'naviy energiyaga aylanadi. His etilmagan, anglanmagan go'zallik ma'naviyatga ta'sir ko'rsata olmaydi. Shuning uchun ham adabiyot o'qitishda badiiy asar tahlili alohida mavqega, ahamiyatga egadir. Adabiy ta'lim oldidagi bosh maqsadga erishish uchun filolog mutaxassis badiiy asarni tahlillash yo'llarini puxta egallab olishi shartdir. Badiiy matn tahlilisiz barkamol shaxs shakllantirilishi amalga oshmaydigan orzudir, xolos. Chinakam badiiy tahlil bo'lmagan joyda badiiy matn o'quvchining tuyg'ulariga ta'sir etmaydi, ma'naviyatining shakllanishiga xizmat qilmaydi. Mafkuraviy adabiyot o'qitish, aslida, badiiy asarsiz adabiy ta'lim edi. Bunda badiiy matnning o'zi bilan emas, balki undan chiqarilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy ma'no bilan ko'zlanar edi, xolos. Natijada, adabiyot o'qitish quruq nasihat, yalang'och aqidaparastlik, siyosatshunoslik, jamiyatshunoslikka aylanardi.¹

Mustaqillik davrida badiiy ijodda siyosiy mavzularning bir muncha torayib ijtimoiy munosabatlar haqidagi mavzularda kengroq ijod qilina boshlandi. Shu xususda Ulug'bek Hamdamning "So'z" hikoyasida ham er-xotin munosabatlari haqida so'z boradi. Ulug'bek Hamdam ko'plab hikoyalari rus tiliga tarjima qilingan, "Tosh" hikoyasi Amerikada e'tirof etilgan. Ulug'bek Hamdam yangilik va yangilanishlarga boy, ilmiy dunyosi va o'z yozish uslubiga ega. "Tosh", "Ko'ngildagi daryo", "Unutilgan nay navosi", "Lola", "So'z", "Bir payola suv", "Musulmon" kabi hikoyalar kitobxonni o'ylashga majbur etadigan falsafiy asarlardir. "So'z" hikoyasi uslub jihatidan boshqa hikoyalardan farq qiladi.²

Hikoya farzandlarini uyli joyli qilgan er-xotinning endi rohat-farog'atda yashayman, deya sayohatga chiqishi bilan boshlanadi. Er-xotinning bir-biriga bo'lgan munosabatiga

1 BuxDU E.M.Muxtorov "Badiiy matn tahlilining ma'ruzalar matni" Buxoro-2021

2 Soqiyeva Z. "Ulug'bek Hamdam hikoyalari xayol va haqiqat".

kishi havas bilan qaraydi. Lekin hikoyani o'qish davomida hikoya tub burilish yasaydi va o'quvchini hayratga solidi. Hikoyadagi obrazlarga ta'rif beradigan bo'lsak, birinchi bo'lib er obrazi. Er ayoliga juda mehribon, uni avaylaydi. Lekin hikoyadagi ayolning dugonasiga aytgan jumlasini orqali ayolidan ko'ngli sovib ketadi. Ayolning tilidan aytilgan "bema'ni kun" jumlasini uning keyingi hayotiga og'u solib turadi. Lekin shuncha o'ylayversa ham ayolidan bir og'iz aytgan gapini uchun izoh so'ramaydi. Balki ayol dugonasining eri unga yomon munosabatda bo'lganligi, bunday dam olishlarga sharoiti yetmasligi, balki eri vafot etganligi kabi sabablar tufayli uni o'ksitmaslik uchun o'sha kunni "bema'ni kun" deb atagandir. Er xotinning ozorini ko'tarishi, u g'azablanganida va jahli chiqqanida muloyim bo'lishi, uning xatolarini kechirishi kerak. Bunday qilish Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sunnatlariga amal qilishdir. Imom Muslim rivoyat qilishlaricha, Anas ibn Molik roziyallohu anhu aytadilar: «Rasullulohdan boshqa oilasiga mehribonroq biror kishini ko'rmadim».³

Ayol obraziga ta'rif beradigan bo'lsak, eriga g'amxo'r, u bilan hayoti davomida yelkama-yelka bo'lgan, uni doim qo'llab-quvvatlagan obrazdir. Ammo hikoya davomida uning dugonasiga aytgan so'zlari orqali o'quvchida u haqida yomon taassurot qoldiradi. Yuqorida aytilgan va'jlarni hisobga olganda ham, ayol eri vaqt ajratib sayohatga olib chiqqan paytda dugonasi bilan bunday gaplarni gaplashmasligi kerak edi. Xotinning er zimmasidagi haqlaridan birinchisi er tomonidan unga yaxshi va adolatli muomala qilinishidir. Zero, Alloh taolo O'z kitobida: "ayollar bilan yaxshilik bilan umrguzaronlik qilinglar!", deya amr etgan (Niso surasi: 19-oyat).⁴

Hikoyadagi yana bir obraz Zaxariqdaryo hisoblanadi. U haqida hikoyada shunday deyiladi: "Suv deganimiz Chirchiq daryosining bir qo'li bo'lib, u katta shaharga kirayotganda Bo'zsuv, kirib olgach esa Anhor deb ataladi. Bu yerda uni Zaxariqdaryo deyishadi. Chindanam kattakon, naq daryo deysan. Lekin daryodan nimasidir kamga o'xshaydi, shu uchun bo'lsa kerak, nomining ichida arig'i bor. Qiziq-a, bir qarasang, daryo, bir qarasang, ariq! Ustiga ustak, zaxi ham mavjud. Suv oqqan joyda zax bo'ladi-da! Ha, nima, Zaxariqdaryoga qarab, birov zax suvni, birov ariqni va yana boshqa birov daryoni ko'rsa ko'raversin. Hamma ham bu dunyoda niyatiga yarasha nasibasini olaverar ekan-da. Boshqa tomondan, o'sha uchta "birov"ning bitta odamga aylanib, Zaxariqdaryoni hayotining uch pallasida uch xil ko'rdim desa, nima deysiz? Masalan, yoshligida daryo, o'rta yoshida ariq va keksayganda zax suvni ko'ryapman, deb qolsa-chi?.. Bundan chiqdi, faylasuflar aytganlaridek, olam bu bizning tasavvurimizmi? Odamzod nimani ko'rishni xohlasa, shunga ro'baro' keladimi?.. Eh, bularning siriga kim yetibdiki, biz yetsak... " Bu yerda suv insonning yoshiga qiyoslanmoqda. Uni boshqa tomondan tahlil qilsa ham bo'ladi. Insonning hissiyotlari ba'zida daryo kabi tushadi, ba'zida ariq kabi mo'tadillashib qoladi, ba'zida zax kabi har narsadan sovib qoladi. Shu jihatdan uni insonning hissiyotlariga qiyoslasak bo'ladi. Hikoyada e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan tuz obraziga ta'rif bersak, u haqida: Er bir qoshiq oldi va tarrakdek qotdi: og'ziga osh emas, go'yo bir qoshiq tuz solgandek afti keskin bujmaydi.

- Ha-a? - dedi sergak tortib xotin. - Nima qildi? - Keyin o'zi oshdan totib ko'rdi. - Sho'rroq, demoqchimisiz? Hechamda.

³ <https://kun.uz/news/2016/11/25>

⁴ <https://kun.uz/news/2016/11/25>

Er indamadi. Choy xo'plab og'zidagini tezroq yutishga urindi. – Tavba, dedi u ichida, – shuncha yashab, o'z umr yo'ldoshimning ta'bini haligacha bilolmagan bo'lsam-a. To'g'ri, u menga qaraganda sho'rtobroq narsalarni suyib yeydi. Ammo bu darajada emasdi-ku!" Ushbu holatda tuzni keltirish orqali munosabatlardagi holatlarni ham ijodkor ifodalamoqchi, ya'ni bemahal va o'rinsiz aytilgan gap inson hayotigadi ortiqcha tuz bo'lib ko'nglini g'ashlaydi. Yuragidagi gapni so'rolmaslik esa tuzi kam ovqatga o'xshaydi – nima yeganingizni bilmaysiz, ya'ni hayotingizni be'mano o'tkazgandek his qilasiz. Bir-birni tushunib, har qanday vaziyatda qo'llab quvvatlash esa mazali ovqat kabi hayotingiz totli bo'ladi. "Qo'shni bor-ku, qariya, o'sha. Mashinasida pechka olib kelgan ekan, qishga hozirlik. Tushirishvordim. Ilgari bilinmasdi, keksayganda sovuq jon- joningdan o'tib ketar ekan, deydi... ". Hikoyadagi ushbu holatda ijodkor sovuq orqali nafaqat sovuq havoni, balki sovuq gapni ham nazarda tutgan bo'lishi mumkin. Hikoya qahramonlari aytilgandek yoshi qirq elliklardan oshgan obrazlardir. Yoshlikda e'tibor berilmagan gaplar yosh o'tgan sayin ko'ngilga sovuq tegib, jon-jonidan o'tadiganbo'lib qolishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, hikoyani yana tahlil qiladigan bo'lsak, e'tibor qaratilmagan ko'plab qirralari topilishi mumkin. Adabiyot mana shunday qudratga ega. Birgina so'zdan ham bir olam ma'no chiqarish mumkin. Ulug'bek Hamdam ham bu hikoyasi orqali olam ma'no yaratgan, deya ikkilanmay aytishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. BuxDU E.M.Muxtorov "Badiiy matn tahlililing ma'ruzalar matni" Buxoro-2021
2. Soqiyeva Z. "Ulug'bek Hamdam hikoyalarida xayol va haqiqat".
3. <https://kun.uz/news/2016/11/25>